OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM RESURSLARINI SAMARALI BOSHQARISH VA ULARNING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI

Ulugbayeva Dilfuza Zufar qizi
Farmatsevtika texnik universiteti, Xodimlar bo'limi boshlig'i,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17287491

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim resurslarini samarali boshqarish masalasi va ularning ta'lim sifatiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda nazariy va empirik yondashuvlar uyg'unlashtirilib, resurslarni boshqarishning moliyaviy, insoniy va moddiy-texnik jihatlari o'rganildi. Xalqaro va milliy tajribalar solishtirma tahlil qilinib, samarali boshqaruv mexanizmlarining ta'lim sifatiga ko'rsatadigan bevosita va bilvosita ta'siri aniqlangan. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ta'lim qamrovining kengayishi, xorijiy talabalar sonining ortishi va OTMlar tarmog'ining kengayishi resurslarni samarali boshqarish zaruratini kuchaytirayotgani asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, resurslarni boshqarish, ta'lim sifati, strategik boshqaruv, raqobatbardoshlik, xalqaro tajriba.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы эффективного управления образовательными ресурсами в высших учебных заведениях и их влияние на качество образования. В исследовании применены теоретические и эмпирические подходы, изучены финансовые, кадровые и материально-технические аспекты управления ресурсами. Проведен сравнительный анализ международного и национального опыта, выявлены прямые и косвенные эффекты эффективного управления на качество образования. Обосновано, что рост охвата высшим образованием, увеличение числа иностранных студентов и расширение сети вузов в Узбекистане усиливают необходимость эффективного управления образовательными ресурсами.*

Ключевые слова: *высшее образование, управление ресурсами, качество образования, стратегическое управление, конкурентоспособность, международный опыт.*

Abstract. *This article analyzes the issue of effective management of educational resources in higher education institutions and its impact on the quality of education. The study combines theoretical and empirical approaches, examining financial, human, and material-technical aspects of resource management. A comparative analysis of international and national practices was conducted to identify the direct and indirect effects of effective management on educational quality. The findings demonstrate that the expansion of higher education coverage, the increase in the number of international students, and the growth of higher education institutions in Uzbekistan emphasize the need for effective management of educational resources.*

Keywords: *higher education, resource management, quality of education, strategic management, competitiveness, international experience.*

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida oliy ta’lim tizimi inson kapitalini rivojlantirish, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash hamda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Ta’lim sifatini oshirishda esa resurslardan samarali foydalanish va ularni boshqarish hal qiluvchi omillardan biridir. Chunki ta’lim resurslarining oqilona boshqarilishi talabalarning o‘quv jarayonida zarur bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni puxta egallashiga yordam beradi, professor-o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi hamda oliy ta’lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi mavqeini oshiradi.

Shu bilan birga, ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi yetarli darajada yuqori emasligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning notekisligi, ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatini rivojlantirishdagi muammolar va infratuzilmaning zamonaviy talablarga mos kelmasligi ta’lim sifatini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa mazkur sohada samarali boshqaruv tizimini shakllantirish zaruratini kuchaytiradi.

Shunday qilib, ta’lim resurslarini samarali boshqarish masalasi nafaqat oliy ta’lim tizimining sifat ko‘rsatkichlarini oshirishda, balki mamlakatning intellektual salohiyati va iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta’lim tizimida resurslarni samarali boshqarish masalasi so‘nggi yillarda ko‘plab xalqaro va milliy tadqiqotlarda alohida ilmiy e’tibor qaratilgan mavzulardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda bu jarayon moliyaviy, insoniy va moddiy resurslarni strategik rejalashtirish hamda ularni oqilona taqsimlash orqali ta’lim jarayonini optimallashtirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida ta’riflanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali resurs boshqaruvi o‘qitish sifati, ta’lim muassasalarining tashkiliy rivojlanishi va ularning xalqaro reytinglardagi mavqeiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlarda ta’lim resurslarini boshqarishning asosiy strategiyalari sifatida barqaror moliyaviy rejalashtirish va byudjetlashtirish, professor-o‘qituvchilar salohiyatini doimiy rivojlantirish, shuningdek, ilg‘or texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish ko‘rsatib o‘tiladi. Bunday yondashuvlar natijasida qulay o‘quv muhitining shakllanishi, ilmiy-akademik yutuqlarning qo‘llab-quvvatlanishi va talabalar o‘zlashtirish darajasining oshishi kuzatiladi. Shu bilan birga, samarali resurs boshqaruvi oliy ta’lim muassasalarining tez o‘zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga hamda manfaatdor tomonlar ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda oliy ta’lim to‘g‘risidagi tasavvur zamonaviy bozorda tegishli xizmatlarni taqdim etadigan, o‘z iste’molchisiga ega bo‘lgan, ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqaradigan soha sifatida shakllanayotganligi sababli, ta’limdagi sifat kategoriyasi tobora ko‘proq iqtisodiy tus olmoqda. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun ta’lim muassasasi uning sifatini talab darajasida saqlab turishi kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, ta’lim sifati muammosi, shubhasiz, milliy ta’lim siyosatining muhim qismidir, shuning uchun har bir OTMda ta’lim sifatini boshqarishning umumiy muammosi bilan bog‘liq holda o‘ziga xos sifat modeli bo‘lishi kerak[1].

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va baholash masalasi global miqyosda dolzarb muammo hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar va ko‘plab mamlakatlar tomonidan belgilangan 2030-yilgacha bo‘lgan ta’lim konsepsiyasida “ta’lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini

takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish" masalasi eng muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgan. Bu yondashuv orqali ta'lim sifatini kafolatlaydigan mexanizmlarni tatbiq qilish hamda ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimini uzluksiz rivojlantirish maqsad qilingan[2].

Ta'lim muassasalari–maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan tortib universitetlargacha–o'z faoliyatida mehnat, moddiy, moliyaviy va vaqt resurslaridan foydalanadi. Boshqaruv va xodimlarning vazifasi ushbu resurslardan foydalanishni optimallashtirish, ortiqcha xarajatlardan qochish hamda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish strategiyasiga amal qilishdan iboratdir[3].

Milliy iqtisodiy tizimlardagi transformatsion o'zgarishlar va ta'lim jarayonining globallashuvi ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini tadqiq etish, monitoring qilish va joriy etishni talab etadi. Bu jarayon o'quv jarayonining sifat auditi va universitet madaniyati bilan o'zaro aloqalarni qamrab olib, ta'lim sifatining umumiy darajasini oshirishga hamda muvozanatli ta'lim boshqaruvi strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi[4].

Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim resurslarini boshqarish va ta'lim sifatini oshirishga oid ilmiy qarashlar nafaqat nazariy, balki amaliy yondashuvlar orqali ham rivojlanib bormoqda. Siyosatni shakllantirish ko'pincha globallashuv jarayonlari haqidagi turli konsepsiyalarga, oliy ta'limdagi xalqaro raqobatning mohiyatiga hamda xususiy sektorni innovatsiyalarga faol jalb etish borasida oliy ta'lim muassasalarining mavjud salohiyatiga asoslanadi. Bu jihat ko'plab xalqaro hujjatlarda, xususan Yevropa oliy ta'lim siyosatlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu hujjatlarda global raqobat sharoitida oliy ta'limning moslashuvchanligi, innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda xalqaro hamkorlikning samarali modellariga alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, Yevropa tajribasida milliy va mintaqaviy darajadagi hamkorlik strategiyalarini uyg'unlashtirish orqali global raqobatbardoshlikka erishish yo'llari taklif etiladi. Bu borada davlat siyosati, xalqaro integratsiya dasturlari va resurslardan foydalanishning turli kombinatsiyalarini hisobga olish tavsiya etiladi. Shu jihatdan, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, samarali resurs boshqaruvi ta'lim sifatini oshirish bilan birga, oliy ta'lim muassasalarining global bilim makonida faol ishtirokini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida resurslarni samarali boshqarish nafaqat ta'lim jarayonining ichki sifat ko'rsatkichlarini oshirish, balki ularning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda ushbu masalaga oid turli yondashuvlar ilgari surilgan bo'lsa-da, ularning barchasi umumiy maqsad—ta'lim sifatini oshirish va barqaror rivojlanishga erishishga qaratilgandir.

Biroq, mavjud adabiyotlarda ta'lim resurslarini boshqarishning amaliy mexanizmlarini milliy sharoitga moslashtirish, ularning samaradorligini baholash va real natijalarni aniqlashga yetarli e'tibor qaratilmagan. Shu boisdan tahlil va natijalar qismida ta'lim resurslarini boshqarish jarayonining amaliy tahlili o'tkazilib, ularning ta'lim sifatiga ko'rsatadigan bevosita va bilvosita ta'sir natijalari yoritiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida ta’lim resurslarini samarali boshqarishning ta’lim sifatiga ta’sirini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda nazariy va empirik yondashuvlarning uyg‘unlashuvi qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim resurslarini samarali boshqarishning amaliy jihatlarini o‘rganish ta’lim sifati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ko‘plab omillarni tahlil qilishni talab etadi. Mavjud nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba resurslarni oqilona taqsimlash va ulardan samarali foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda hal qiluvchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqotda ta’lim resurslari boshqaruvining moliyaviy, insoniy va moddiy-texnik jihatlari o‘rganilib, ularning ta’lim sifatiga ta’siri chuqur tahlil qilinadi.

Tahlil jarayonida oliy ta’lim muassasalarida mavjud boshqaruv amaliyoti, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda ta’lim jarayonining natijadorlik ko‘rsatkichlari baholanadi. Shuningdek, xalqaro tajribada qo‘llanilayotgan ilg‘or mexanizmlar bilan solishtirish orqali milliy ta’lim tizimi uchun samarali bo‘lgan yondashuvlar aniqlanadi. Bu yondashuvlar nafaqat mavjud muammolarni hal qilishga, balki ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan istiqbolli takliflarni ishlab chiqish imkonini beradi.

1-jadval

Inson taraqqiyoti indeksi, jon boshiga YaIM va ta’lim davri o‘rtasidagi korrelyatsiya

Ko‘rsatkichlar	HDI	Kutilayotgan ta’lim yillari	O‘rtacha ta’lim yillari	Jon boshiga YaIM, USD
HDI	1			
Kutilayotgan ta’lim yillari	0,715209	1		
O‘rtacha ta’lim yillari	0,838809	0,554198	1	
Jon boshiga YaIM, USD	0,942664	0,742899	0,802468	1

Manba: https://hdr.undp.org/data-center/human-development-index#/indicies/HDI

Ta’lim boshqaruvi zamonaviy oliy ta’lim tizimining muhim komponenti bo‘lib, u ta’lim muassasalarining inson resurslari, moddiy vositalari va innovatsion g‘oyalarini tashkil etish hamda muvofiqlashtirishni o‘z ichiga oladi (Yasinska, 2022). Mazkur jarayon keng qamrovli bo‘lib, unda pedagogik va nopedagogik xodimlar, talabalar, ota-onalar, mahalliy hamjamiyat vakillari hamda mas’ul idoralar faol ishtirok etadilar. Shu boisdan, ta’lim boshqaruvi nafaqat resurslarni taqsimlash va ularni nazorat qilish, balki ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan hamkorlik mexanizmlarini shakllantirishni ham talab qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, ta’lim boshqaruvining asosiy maqsadi boshqaruv jarayonini muvofiqlashtirish va samarali tashkil etishdan iborat bo‘lib, u xodimlarni tanlash, ishga qabul qilish, ularning malakasini oshirish hamda professional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi. Oliy ta’lim muassasalari rahbarlari esa ushbu jarayonda muhim rol o‘ynab, o‘z tashkiliy va boshqaruv amaliyotlarini muntazam ravishda takomillashtirishlari lozim.

Bu, o‘z navbatida, ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va muassasaning xalqaro ta’lim maydonidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2-jadval

Universitet boshqaruvining asosiy yo‘nalishlari

№	Yo‘nalish	Asosiy vazifalar
1	Strategik boshqaruv	Universitet missiyasi va strategiyasini belgilash, maqsadlarni qo‘yish, reja ishlab chiqish
2	Moliyaviy boshqaruv	Moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, byudjetni rejalashtirish, mablag‘larni ustuvorliklar asosida taqsimlash
3	Ma’muriy boshqaruv	Ma’muriy jarayonlarni samarali tashkil etish, inson resurslarini boshqarish, infratuzilma rivoji va korporativ madaniyatni qo‘llash
4	Ta’lim sifati	Yuqori sifatli o‘quv dasturlari, innovatsion o‘qitish usullari, natijalarni o‘lchash va baholash
5	Talabalarni boshqarish	Talabalar uchun qulay va samarali muhit yaratish, ularning o‘quv va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash
6	Xalqaro hamkorlik	Xalqaro aloqalarni rivojlantirish, talabalar va o‘qituvchilar almashinuvi, xalqaro loyihalarda ishtirok
7	Axborot texnologiyalari	Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, IT orqali axborot va ta’lim resurslariga kirishni ta’minlash
8	Faoliyatni baholash va takomillashtirish	Faoliyatni uzluksiz monitoring qilish, tahlil etish, samaradorlikni oshirishga qaratilgan choralarni amalga oshirish
9	O‘zgarishlarni boshqarish	O‘zgarishlarga moslashish, yangiliklarni samarali joriy etish va boshqaruv tizimini doimiy rivojlantirish

Manba: http://dx.doi.org/10.14571/brajets.v17.nse1.2024

Ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari—ma’muriyat, professor-o‘qituvchilar, talabalar va boshqa manfaatdor tomonlarning samarali hamkorligi ta’lim boshqaruvining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday ko‘p tomonlama o‘zaro hamkorlik boshqaruv jarayonida muvozanatni ta’minlab, ta’lim muassasasining maqsad va vazifalarini to‘laqonli amalga oshirish imkonini yaratadi.

Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, muvozanatli va malakali boshqaruv yondashuvi oliy ta’lim muassasalariga nafaqat ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, balki talabalarni yuqori sifatli kasbiy tayyorgarlikka hamda shaxsiy rivojlanishga tayyorlashda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, sifatni boshqarish va raqobatbardoshlikning ta’minlanishi yuqori ta’lim standartlariga erishish, xalqaro me’yorlarga moslashish hamda ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi barcha tomonlarning ehtiyojlarini qondirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim resurslarini samarali boshqarish strategik yondashuvni talab qiladi, chunki resurslarning to‘g‘ri taqsimlanishi va ulardan oqilona foydalanish ta’lim sifati bilan uzviy bog‘liqdir. Moiseienkoning fikricha, samarali strategik boshqaruv besh asosiy elementni o‘z ichiga oladi: birinchidan, mavjud vaziyatni modellashtirish va resurslardan foydalanishdagi muammolarni aniqlash qobiliyati; ikkinchidan, ta’lim jarayonida zarur o‘zgarishlarni belgilash va

aniq maqsadlarni qo‘yish; uchinchidan, resurslarni boshqarishga doir strategiyalarni ishlab chiqish; to‘rtinchidan, strategiyani amalga oshirishda turli usul va mexanizmlardan foydalanish; beshinchidan, jarayonni muvofiqlashtirish va o‘zgarishlarni samarali boshqarish.

Kobidze ta’kidlaganidek, oliy ta’lim muassasalarida resurslarni boshqarish mexanizmi quyidagi tarkibiy elementlardan iborat bo‘lishi lozim: aniq belgilangan maqsadlar va boshqaruv omillari, samarali tashkiliy tuzilma, moddiy, moliyaviy va inson resurslari, ta’sir ko‘rsatish usullari hamda boshqaruv natijalarini baholash. Ushbu mexanizmni kompleks qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish va oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta’minlash mumkin.

Shunday qilib, ta’lim resurslarini strategik boshqarish nafaqat oliy ta’lim muassasasining ichki jarayonlarini takomillashtiradi, balki ta’lim sifatining barqarorligini oshiradi, innovatsion yondashuvlarni joriy etishga sharoit yaratadi hamda global ta’lim maydonida raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi.

3-jadval

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim resurslarini samarali boshqarish elementlari va ularning ta’lim sifatiga ta’siri

Strategik boshqaruv elementi	Ta’lim resurslarini boshqarishdagi mazmuni	Ta’lim sifatiga ta’siri
Vaziyatni modellashtirish (muammoni aniqlash)	Resurslardan foydalanishdagi muammolarni tahlil qilish, mavjud imkoniyatlarni aniqlash	Ta’lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi
O‘zgarishlarni belgilash (maqsad qo‘yish)	Ta’lim resurslarini samarali taqsimlashga qaratilgan aniq maqsadlarni belgilash	Ta’lim sifati ko‘rsatkichlarini oshirish uchun yo‘nalishlarni aniqlaydi
Strategiyani ishlab chiqish	Resurslardan foydalanish bo‘yicha kompleks strategiya yaratish	Ta’lim xizmatlarining izchil rivojlanishini ta’minlaydi
Strategiyani amalga oshirish (usullar)	Innovatsion texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv vositalari va metodlarni qo‘llash	O‘quv jarayonining samaradorligi va talabalar qoniqishini oshiradi
Strategiyalarni muvofiqlashtirish (o‘zgarishlarni boshqarish)	Barcha ishtirokchilar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va natijalarni monitoring qilish	Ta’lim sifatini nazorat qilish va barqarorligini ta’minlaydi

Manba: Moiseienko (2018), Kobidze (2021) asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Oliy ta’lim muassasalari ta’lim sifati va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida o‘quv dasturlarini muntazam yangilab boradilar. Mazkur strategiya ta’lim mazmunini mehnat bozori talablariga hamda sohadagi ilmiy-texnologik yutuqlarga muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Talabalar uchun ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish ularning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va professional faoliyatga tayyorlanish jarayonida muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, kelajakdagi ish beruvchilar va korxonalar bilan samarali hamkorlik ta’lim dasturlarining dolzarbligini ta’minlaydi hamda bitiruvchilarning bandlik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

4-jadval

O‘zbekiston bo‘yicha statistik misollar

№	Ko‘rsatkich	Raqam / O‘sish (%)
1	18-23 yoshdagi aholining oliy ta’lim bilan qamrov ko‘rsatkichi	2024/2025-o‘quv yilida **47,7 %**
2	OTM bitiruvchilar soni oshishi	2024-yilda **211,2 ming** bitiruvchi; 2015-yilda **66,3 ming** — ya’ni **3,2 barobar** ortdi
3	OTMlar soni va xorijiy OTM faoliyatining kengayishi	2017/2018-yilda 72 ta oliy ta’lim muassasasi bo‘lsa, 2023/2024-o‘quv yilida — **219 ta** (304 % o‘sish); xorijiy OTMlar 31 taga yetgan
4	Xorijiy talabalar soni	2024/2025 o‘quv yilida O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijiy talabalar soni **12,5 ming** nafarga yetdi; so‘nggi yillarda sezilarli o‘sish qayd etilmoqda

Keltirilgan statistik ko‘rsatkichlar ta’lim xizmatlari va oliy ta’lim muassasalarining imkoniyatlari kengayib borayotganini, talablar ortib borishini hamda resurslarni samarali boshqarish zaruratining kuchayishini yaqqol namoyon etadi. Xususan, ta’limga qamrov darajasining 47,7 % ga yetgani oliy ta’lim muassasalaridan moddiy-texnik baza, infratuzilma va kadrlar salohiyatini sezilarli darajada oshirishni talab etadi. Bu esa, talabalarning soni ortishi bilan birga, xizmatlar sifati va ta’lim resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, xorijiy talabalar sonining ko‘payishi hamda OTMlar sonining keskin o‘sishi global va milliy raqobat muhitining kuchayganidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan, ta’lim sifatini boshqarish tizimida monitoring, akkreditatsiya, innovatsion pedagogik metodlar va xalqaro hamkorlik strategiyalarini kuchaytirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim resurslarini samarali boshqarish ta’lim sifati va raqobatbardoshlikning asosiy omillaridan biridir. Resurslarning oqilona taqsimlanishi, ularni boshqarishning strategik mexanizmlarini joriy etish, inson kapitali va moddiy-texnik bazani rivojlantirish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga, talabalar bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirishga hamda xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida qamrov ko‘rsatkichining ortishi, xorijiy talabalar sonining ko‘payishi va oliy ta’lim muassasalari tarmog‘ining kengayishi ta’lim sifatini boshqarishda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Xalqaro tajribalar shuni tasdiqlaydiki, samarali resurs boshqaruvi ta’lim muassasalarining barqaror rivojlanishi, global raqobatbardoshligi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga qo‘shayotgan hissasini sezilarli darajada oshiradi.

Takliflar:

–Oliy ta’lim muassasalarida moddiy, moliyaviy va inson resurslaridan oqilona foydalanish uchun raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish zarur;

– Professor-o‘qituvchilarni muntazam qayta tayyorlash, malaka oshirish va xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirokini rag‘batlantirish ta’lim sifatini oshiradi;

– Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish orqali ta’lim samaradorligini va talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini oshirish mumkin;

– Xorijiy universitetlar bilan qo‘shma dasturlar, talabalar va o‘qituvchilar almashinuvini rivojlantirish ta’lim dasturlarining dolzarbligini ta’minlaydi;

– Ichki va tashqi baholash mexanizmlarini joriy etish, akkreditatsiya va sifat standartlariga muvofiqlikni muntazam kuzatib borish lozim;

– Ishlab chiqarish amaliyotlarini kengaytirish va ish beruvchilar bilan bevosita hamkorlikni kuchaytirish orqali bitiruvchilarning bandlik darajasini oshirish mumkin.

Shunday qilib, ta’lim resurslarini samarali boshqarish bo‘yicha ilg‘or strategiyalarni joriy etish O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining nafaqat milliy, balki xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ham sezilarli darajada mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.B. Nizamov, Sh.K.G‘afurova, “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarish tizimini modellashtirishning uslubiy yondashuvlari”, Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar barqaror rivojlanishining dolzarb muammolari va yechimlari, 22-23.04.2024
2. S.R. Turatosheva, O.I. Islomov, “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va baholash (muammolar va yechimlar)”, “Modern trends of teaching in the context of innovative and digital technologies in higher education: prospects, problems and solutions” international scientific and practical conference, november 29, 2024
3. Damet Bagirov, Gabil Manafov, Mubariz Bagirov, Nusret Babayev, Gultakin Mammadova, “Effective resource management in educational institutions: Challenges and strategies”, Journal homepage: https://physics.uz.ua/ en Issue 56, 1146–1154 Received: 14.01.2024. Revised: 27.04.2024. Accepted: 25.06.2024
4. Illia Lysokon, Yuliia Barulina, Hanna Zakharova, Tamara Vasyliuk, Ivanna Razmolodchykova, “Educational management in higher education institutions: strategies for quality and competitiveness management”, Brazilian Journal of Education, Technology and Society (BRAJETS) http://dx.doi.org/10.14571/brajets.v17.nse1.2024
5. Butenko, A., Eremenko, O., & Stukalo, N. (2023). Report on the quality of higher education in Ukraine, its compliance with the tasks of sustainable innovative development of society in 2022. National Agency for Quality Assurance in Higher Education.
6. Drysdale, L., Gurr, D. (2022). Finding and Promoting Effective Leaders. In: English, F.W. (eds) The Palgrave Handbook of Educational Leadership and Management Discourse. Palgrave Macmillan, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-030-99097-8_24
7. Mosyakova, I. (2023). Educational management: tendencies of effective using of management technology of a out-of-school education multiprofessional institution. New pedagogical thought, 112(4), 38–42. https://doi.org/10.37026/2520-6427-2022-112-4-38-42
8. Prudente, J., & Yunaningsih, A. (2023). Improving university competitiveness and quality education through Human Resource Development in the digital era. Bedan Research Journal, 8(1), 173-201. https://doi.org/10.58870/berj.v8i1.51